



## KICHIK BIZNES FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARING O'RNI

**Boboyeva Gulnora Ganjiyevna,**  
*tayanch doktorant,*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada kichik biznes faoliyatida innovatsiyalarning ahamiyati, afzalliklari ko'rib chiqilgan. Kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faoliyatiga oid statistik ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, innovatsiya, innovatsion faollik, raqobat ustunligi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, yangi ishchi o'rinalarini yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilashda poydevor vazifasini o'taydi. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ham kichik biznes sub'yektlari, ularning innovatsion faoliyatini amalga oshirishdagi faolliklari muhim ahamiyatga ega.

Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalar kichik biznes faoliyatining zaruriy omiliga aylandi. Innovatsiyalar korxonalarning bozorda yashab qolishida muhim rol o'ynaydi va odatda yangi bilim va g'oyalarning tijoratlashuvi orqali ifodalanadi. Innovatsiyalar korxonalar unumdarligi va o'sishining zaruriy omiliidir.

Shumpeter tadbirkorni taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'radi. "Innovatsiyalarning asosiy natijasi foyda hisoblanadi, u innovatorni jamiyatni taraqqiyotga olib keladigan innovatsiyalarni doimiy yaratishga undaydi", degan fikrlarni ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'RQ-630-sonli Qonunida innovatsiya atamasiga fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanidigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma, deb izoh berilgan.

Kichik va o'rta biznes nuqtai nazaridan innovatsiyalar odatda mavjud mahsulotlarga nisbatan mijozlar ehtiyojlarini yana ham o'ziga xos va foydaliroq tarzda qondiradigan yangi mahsulot yoki jarayonlardir.


Bozor o'zgarishlariga tezkor moslashuvchanlik, unda band xodimlarning o'zini namoyon etish imkoniyatlari kengligi, kichik biznes sub'yektlariga yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar ushbu soha vakillarining innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kichik biznesning innovatsion faoliyatni amalga oshirishi quyidagilarga imkon beradi:

- Mehnat unumdorligini oshirish;
- Xarajatlarni qisqartirish;
- Raqobat ustunliklariga ega bo'lish;
- Bozor ulushini oshirish yoki mavjud bozor ulushini mustahkamlash;
- Rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish;
- Mavjud moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish;
- Export salohiyatini oshirish va boshqalar.

Quyida keltirilgan diagrammada kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari aks ettirilgan bo'lib, unda kichik biznesning innovatsion faollik darajasi o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxona va mikrofirmalarning jami kichik biznes sub'yektlari soniga nisbati orqali hisoblangan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2021-yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik biznes sub'yektlari soni viloyatlar kesimida tahlil qilinganda yetakchi uchlikdan Toshkent shahri (1137), Toshkent (545) va Navoiy viloyatlari (391) o'rinn egallagan. Eng past ko'rsatkichlar esa Jizzax (710) hamda Xorazm (69) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida (43) kuzatilgan. Kichik biznes sub'yektlari innovatsion faoliyatining boshqa ko'plab ko'rsatkichlari bo'yicha ham Toshkent shahri va Toshkent viloyatlarining yuqori natijaga erishishlarining asosiy sabablari bo'lib, avvalambor hududda kichik biznes sub'yektlari sonining ko'pligi, intellektual salohiyatni oshiruvchi oliy ta'lim muassalarining zinch joylashganligi, malakali mutaxassis va kadrlarning doimiy markazga intilishi va albatta boshqa viloyatlarga nisbatan innovatsion infrazilmaning yaxshiroq shakllanganligi deb baholashimiz mumkin.



*Kichik biznes innovatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, % larda.*



**Manba:** O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. 2017-2020-yy. Statistik to'plam.  
T.2021.189-bet. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari  
asosida muallif ishlanmasi.

Diagramma ma'lumotlaridan 2016-yildan 2020-yilgacha kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faolligi oshganlini ko'rishimiz mumkin. Biroq 2021-yilda innovatsion faollik ko'rsatkichi 2020-yildagiga nisbatan deyarli 2 barobarga pasayib, 0,84 % ni tashkil etgan.

Kichik biznes sub'yektlarining ishlab chiqargan innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar hajmining jami mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlardagi ulushi 2020-yilda 4,98 % ga yetgan bo'lsa, 2021 yilga 2,55 % tashkil etgan, ushbu ko'rsatkichning ham bir yil ichida deyarli 2 barobarga pasayishi kuzatilgan.

Pasayish dinamikasi kichik biznes sub'yektlari tomonidan texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning jami mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumidagi ulushida ham kuzatilgan. 2016-yilda texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar 211,4 mld. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 1165,7 mld. so'mga yetgan. Ushbu xarajatlarning jami mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushumidagi hissasi esa deyarli o'zgarmagan. Ushbu past ko'rsatkichlarga sabab, kichik biznes sub'yektlarining innovatsiyalarga moyilligining pastligi, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, moliyaviy bar'yerlarning mavjudligi, shu bilan birgalikda tadbirkorlar va ushbu sohada ish bilan band xodimlarda inson kapitalining yetarli emasligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalar kichik biznes faoliyatining ajralmas qismidir. Mamlakatizmizza kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faolligi past. Biroq innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar kichik tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion faoliyati ko'lамини kengaytiradi. Zero, innovatsiyalar va innovatsion faoliyat natijasida korxonalar yuqori foyda bilan ta'minlanadi, raqobat ustunligiga ega bo'lib, hayotiylik davrini uzoq muddat davomida saqlab qolishga erishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. E.Cefis, O.Marsili. The role of innovation in firms' survival.Research policy, 35 (2006), pp.626-641.
2. P.Ganotakis. Founders' human capital and the performance of UK new technology based firms. Small business economics, 39 (2012), pp. 495-515.
3. Й.Шумпетер. Теория экономического развития. М.:Экономика, 1995г.-540 ст.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagи "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'RQ-630-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4910391>)
5. O'Regan, N., Ghobadian, A. Perceptions of generic strategies of small business and medium sized engineering and electronics manufacturers in the UK. Journal of Manufacturing Technology Management, 17(5), 603-620 p.